


Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Standart transtorakal exokardiografiya va sun'iy intellekt yordamida yurak-qon tomir kasalliklarida miokard infarkti mavjud bemorlarda kardioskleroz darajasini tashxislash texnologiyasini ishlab chiqish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: Amaliy.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - standart transtorakal exokardiografiya (TTE) asosida miokard infarkti mavjud bemorlarda kardioskleroz darajasini tashxis qo'yish imkoniyati ishlab chiqiladi. - yurak-qon tomir kasalliklarni samarali tashxislashda TTE video tasvirlari asosida o'tkir Q tishli va Q tishsiz miokard infarksti bor bemorlarga chap qorincha miokardining kardioskleroz darajasini sun'iy intellekt yordamida baholashning kompyuter dasturi ishlab chiqiladi. - ushbu dasturni ishlab chiqish jarayonida maxsus sun'iy intellekt algoritmlari ishlab chiqiladi. Shuningdek' o'tkir Q tishli va Q tishsiz miokard infarkti bor bemorlarning chap qorincha miokardining kardioskleroz darajasini TTE video tasvirlari va gadoliniiy kontrastli MRT tasvirlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlar bazasi shakllaniladi va quriladi. Ishlab chiqilgan sun'iy intellekt algoritmi asosida qurilgan neyron tarmog'ida shakllantirilgan ma'lumotlar to'plami o'qitiladi. - ilmiy tadqiqot ishi yakunida ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan dasturiy mahsulot Windows operatsion tizimi uchun mo'ljallanadi. Ushbu dastur TTE video tasvirlari asosida chap qorincha miokard kardiosklerozining darajasini baholash imkonini ta'minlaydi. Baholash natijasining aniqligi gadoliniiy kontrastli MRT tekshiruvini asosidagi baholash aniqligiga yaqin bo'ladi. - ikki o'lchamli TTE video tasvirlaridan olingan yurakning apikal to'rt kamerali kesimi (apical 4 chamber view - A4C), apikal ikki kamerali kesimi (apical 2 chamber view - A2C) videotasvirlari asosida chap qorincha miokard kardioskleroz darajasi baholanadi va uning baholash aniqligi gadoliniiy kontrastli MRT tekshiruvini asosida baholangan miokard kardioskleroz darajasiga yaqin bo'ladi. - standart transtorakal exokardiografiya va sun'iy intellekt yordamida yurak-qon tomir kasalliklarida miokard infarkti mavjud bemorlarda kardioskleroz darajasini tashxislash orqali optimal davo terapiyasi ishlab chiqiladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sinovlardan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p>Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.</p>